



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

MUSIQA DARS FAOLIYATLARIGA ILMIY TEXNOLOGIK YONDASHUV

Mahammatov Abdumannan

Jizzax davlat pedagogika universiteti, konsertmeyster

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarga talim – tarbiya berish jarayonida musiqa darslari faoliyat turlarini ilmiy asosda tashkil etishning didaktik asoslarini mazmun, mohiyati va uni dars jarayoniga qo'llashning o'ziga xos jihatlari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa madaniyati, pedagogik texnologiyalar, dars faoliyat turlari, texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar, video darsliklar, musiqali albomlar, musiqa darslari, kompyuter, metodist, ta'lim, tarbiya, uslub, shakl, vosita.

НАУЧНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА УРОКАХ МУЗЫКИ

Махамматов Абдуманнан

Джизакский государственный педагогический университет, концертмейстер

Аннотация

В данной статье широко освещаются дидактические основы, содержание, сущность и специфические аспекты применения в учебном процессе научно обоснованной организации видов деятельности на уроках музыки в процессе обучения и воспитания учащихся.

Ключевые слова: Музыкальная культура, педагогические технологии, виды учебной деятельности, технические средства, наглядные пособия, видеочучебники, музыкальные альбомы, уроки музыки, компьютер, методист, образование, воспитание, метод, форма, средство.

A SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL APPROACH TO MUSIC LESSON ACTIVITIES

Mahammatov Abdumannan

Jizzakh State Pedagogical University, Concertmaster

Abstract

This article extensively covers the didactic foundations, content, and essence of the scientific organization of music lesson activities in the process of students' education and upbringing, as well as the specific aspects of their application in the teaching process.

Keywords: Music culture, pedagogical technologies, types of lesson activities, technical tools, visual aids, video textbooks, musical albums, music lessons, computer, methodologist, education, upbringing, method, form, means.

Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish mustaqil Respublikamiz ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, barcha fanlar qatori musiqiy fanlarni o'qitish ishini yanada yaxshilash, uning samaradorligini oshirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish kerak. Ayniqsa, bunday imkoniyatlarning qaysi biridan yaxshiroq natija chiqarish ustida bosh qotirish lozim.

Zamonaviy o'qitish tizimida fanlararo integratsiyaning keskin jadallashuvi tufayli

musiqa amaliyotining pedagogik-psixologik jihatlarini har tomonlama o'rganishga katta ehtiyoj mavjud va bu keyingi yillarda uzluksiz musiqa ta'limi tizimining qator bo'g'inlarida o'z ta'sirini namoyon etmoqda.

Prezident tomonidan imzolangan O'zbek milliy maqom san'atini rivojlantirish to'g'risidagi qarorda: "Xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish..." — deb alohida ta'kidlangan.

Mazkur qarorda qo'yilgan vazifalar mumtoz musiqa san'atimizga qaratilayotgan e'tiborning yanada kuchayganligi, uni taraqqiy ettirish va tarbiyaviy imkoniyatlaridan kengroq foydalanish zarurligidan darak beradi. Albatta, musiqa ohanglari — o'ziga xos hissiyot va kechinmalar tilidir. Musiqiy mazmun ijrochi tomonidan ma'lum hissiyotlar orqali ifodalanadi va tinglovchi ham uni xuddi shu tarzda idrok etadi. Tinglangan musiqa asarlariga nisbatan "sho'x", "quvnoq", "yengil", "mungli", "mayin" singari kayfiyat, hissiyot va kechinmalarni ifodalovchi baholar berilishi ham uning botiniy, ichki quvvatini belgilaydi.

Musiqa san'atining ulkan ruhiy ta'sir quvvatiga egaligi borasida Sharq allomalari o'z asarlarida yozib qoldirishgan. Jumladan, Faxriddin ar-Roziy "Ilmlar xazinasi" kitobida yozishicha: "Musiqiy tovushlar quvnoq kayfiyatni hosil qilsa, past va baland tonlar mutanosibligidandir. Agar g'amginlik uyg'otsa, baland tovushlarning past tonlar bilan qo'shilishidandir. Qahr, g'azab va fikrni past tovushlar; sezgilar, emotsional harakatlarni baland tovushlar ifodalaydi". Bunda alloma musiqaning ruhiy ta'sir kuchiga ishora bergan.

Bizga ma'lumki, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan musiqa madaniyati darsi faqatgina o'quvchilarning bilim olishi va dunyoqarashi kengayishi zamiriga qurilmasdan, balki ma'lum ma'noda ularning qobiliyatlarining o'sishi, ijodkorlik va ijro malakalarining oshirilishini ham taqozo etadi. Chunki bu darslar ko'proq amaliy faoliyat, ya'ni jonli harakatlar asosida o'tiladi. Bu esa ta'lim beruvchi pedagogdan nafaqat chuqur musiqiy bilim va keng dunyoqarashni, balki yuksak ijrochilik mahoratini ham talab qiladi. O'qituvchining shaxsan ijro etgan har bir musiqiy asari o'quvchilar uchun ko'rgazmalilik vazifasini bajaradi. Dars jarayonida o'quvchilar pedagogdan ovoz ishlatish texnikasi, milliy ohanglar hosil qilish, so'zlarni burro talaffuz qilish, intonatsiya va boshqa qo'shiqchilikning o'ziga xos sir-asrorlarini o'rganadilar.

Zero, boshqa fanlar kabi musiqiy fanlarni o'qitishda ham tizimlilik, ilmiylik, davomiylik hamda ko'rgazmalilik tamoyillaridan foydalanish muhim o'rin egallaydi. Xalqimiz "Yuz marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan afzal", deb bejiz aytmagan. Dars olib borish tamoyillariga tayangan holda musiqa darslarini tashkil etishda ko'rgazmalilik jonli va tasviriy vositalar orqali amalga oshiriladi.

Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini ilmiy asosda tashkil etish uchun, avvalo, shuni aytish kerakki, hozirgi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bir vaqtning o'zida ta'lim vositalari (texnik vositalar, laboratoriya jihozlari, axborot va kompyuter vositalari, ko'rgazmali qurollar, darslik, radio, televideniye, kompyuter va h.k.) ni bir necha yo'nalishlarda, musiqa darslaridagi musiqiy faoliyat turlarida qo'llash imkoniyatini beradi. Ayni vaqtda esa texnologik ta'lim tizimi (video darsliklar, o'quv diktantlari, musiqali albomlar, kompyuter va boshqalar) dan ommaviy ravishda foydalanilmoqda. Shuningdek, musiqa fanlarini o'qitishda ham ta'lim tizimining yangi loyihalarini yaratish pedagog-texnolog va metodistlarning kasbiy mahoratlarini oshirishga yordam beradi. Quyidagi tizim, ya'ni "buyurtma — vosita — uslub — yondashuv — ta'lim turi" tizimi zamonaviy kompyuterlar va texnik vositalar, radio va televideniye, lingafon xonasi, avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari, multimedia va gipermatnli ta'lim turlarining intellektual tizimi yordamida darslarni tashkil etishni taqozo etmoqda.

Yangi ta'lim turlarining shakllanib borishi hamda zamonaviy ilg'or o'quv vositalarining ta'limga to'liq tatbiq qilinishi samaradorligini o'rganish ular o'rtasida ma'lum uzviy bog'liqlik mavjud ekanligini ko'rsatmoqda. Bunday bog'liqlik mohiyati jihatidan quyidagi tartibga

asoslanadi:

- zamonaviy ta'limga ijtimoiy zaruriyatning vujudga kelishi;
- ta'lim tizimiga jamiyat tomonidan ijtimoiy buyurtma berilishi;
- ilg'or o'quv vositalarining yaratilishi; ilg'or o'quv vositasini ta'limda qo'llash texnologiyalarining zaruriyati;
- ilg'or o'quv vositalarini ta'limda qo'llash texnologiyalarining zaruriyati;
- ta'lim tamoyillari tizimining yaratilishi.

Demak, pedagogik texnologiyalar ta'lim vositasining yangi avlodi va turlari sifatida hamda ulardan foydalangan holda namoyon bo'ladi. Zamonaviy texnologiyaga asoslangan yangi paradigmaning mohiyati interfaol ta'limni keng ko'lamda va mavjud imkoniyatlar asosida yo'lga qo'yishdan iborat.

Unga ko'ra, har bir ta'lim oluvchi o'quv axborotlarini 3 manba orqali egallaydi:

1. O'qituvchi yordamida.
2. Ma'lumotlar bazasi yordamida (muayyan fan bo'yicha yoki o'quv darslarida).
3. O'quvchilar guruhi yordamida (ular bilan o'zaro fikr almashish orqali).


Pedagogik texnologiya modelida quyidagi paradigma aks etadi:

1. Muammoni qo'yish;
2. Kuzatish va tajriba asosida dalillar to'plash;
3. Dalillarni sharhlash va ilmiy farazni ilgari surish;
4. Testlar yordamida, nazariy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish yo'li bilan ilmiy farazning haqiqiyligini tekshirish;
5. Xulosa va tavsiyalar tayyorlash.

Musiqa madaniyati ta'limida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning samaradorligini o'lchash mezonlari shu soxa bo'yicha ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmunidan kelib chiqqan xolda ishlab chiqiladi. Musiqa ma'daniyatining standart asosdagi yangi ta'lim mazunidan bu fan bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirgan bilimning, ko'nikma va malakalarning, shu bilan birga ulardagi kuzatuvchanlik, xotirani mustaxkamlash, obrazli tasvir hosil qilish, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, badiiy va musiqiy didning shakllanishini belgilaydi. Ayni vaqtda bu borada samaradorlikka erishish yo'li musiqa darslariga, uning tashkil etilishiga nisbatan texnologik yondoshuvni taqozo etmoqda.

Pedagogik texnologiyalarning samaradorligi musiqiy ta'limni ma'lum maqsad asosida, shuningdek maqbul usul, shakl vositalar yordamida tashkil yetilishi orqali ta'minlanadi. Jumladan: texnik vositalar (kompyuter va boshqalar) musiqiy cholg'ular va ularning ijro uslublari, ko'rgazmali jixozlar, amaliy mashg'ulotlar, pedagogik va psixologik vositalar, ovoz sozlash mashqlari, ilg'or o'qituvchilarning ish – tajribalari, noan'anaviy dars shakllari, baholashning yangi tizimi kabilar yangi pedagogik texnologiya samaradorligini aniqlashning muhim mezonlari bo'lib xizmat qiladi.


Pedagogik texnologiyalarning samaradorligi dars jarayonida o'quvchilarning quyidagi o'quv faoliyatlarini nazariy hamda amaliy tarzda bajarish borasidagi bilim ko'nikma va malakalarning egallanish darajasi bilan belgilanadi. O'quvchilar umumiy musiqiy dunyoqarashini kengaytirish ularda ijrochilik (kuylash, ritmik harakatlar bajarish, cholg'u sozlar chalish) malakasini shakllantirish, musiqiy bilim doirasini kengaytirish musiqiy ta'limning umumiy maqsadidir. O'zbek xalq musiqasi, jahon xalqlari musiqasi asarlari, shashmaqom va boshqa yo'nalishdagi o'zbek maqomlaridan, yurtimiz xududiga mos mahalliy musiqasi uslublari namunalari, tinglash orqali o'quvchilarda musiqasi asarlari turlari, janrlari, milliy va akademik ijro uslublari bir-biridan farqlash, dramatik sahna asarlarini farqlash kabi musiqiy savodxonlik darajalari shakllanadi.




Qo'shiq kuylashda turish holati

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. U orqali o'quvchi o'z ovozi ni ya'ni, ovozda ijro etish iste'dodini boshqarish, ustoz i jrosini tinglash, undan ibrat olish, kuzatish, unga taqlid qilish va u bilan birga kuylashga intiladi.


Musiq a madaniyati darsida musiqiy faoliyat turlari



O'zbek xalq qo'shiqlari bastakorlar ijodi mahalliy musiq a uslublariga oid folklor qo'shiqlar va qardosh xalqlar qo'shiqlari, maqom yo'llaridan na'munalar ijro etish orqali ularda ijrochilik malakalari shakllanib boradi. Musiqiy savodxonlik barcha bilimlarni nazariy jihatdan birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhim ahamiyatga ega. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida qanday faoliyat (tinglash, ijro etish, musiqiy harakatlar, cholg'u ijrochiligi) tashkil etilmasin, muayyan mavzudagi musiqiy asar o'rganiladi va o'quvchilarda ularning janri, shakli, tuzilishi, ladi, tempi, dinamikasi, jurovozlari, ritmi to'g'risida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois musiqiy savodxonlik fakat nota yozuvini o'rganish emas, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilimlarini shakllantira boradi.




Musiqa tinglash yakkanovoz (yakka cholgʻu), yakka ovoz (yakka qoʻshik ijrosi), joʻrnovoz (cholgʻuda joʻr boʻlish), joʻrnovoz (qoʻshiq yoki kuylash orqali jur boʻlish)ni bir-biridan farqlash ansambl va orkestr musiqasini farqlay olish, cholgʻu sozlar ovozini farqlash, milliylikni yoki hududiylikni farqlash, musiqiy did va idrokni rivojlantirishni taʼminlaydi, estetik dunyoqarash va milliy koloritni uygʻotadi.



Musiqqa tinglash

Cholgʻu sozlarini chalish milliy cholgʻu sozlarimiz, ularning tovush hosil qilish imkoniyati, milliy kuylarimiz, ularning tuzilishi tezligi, dinamikasi, ladi va ritmini his qilishga hamda oʻquvchilarning oʻz iqtidorlariga oʻzlari va boshqalarning baho bera olishiga, ijro jarayonida ritmga, dinamikaga, tempga rioya qilishga oʻrgatadi.




Musiqali ritmik harakatlar bajarish musiqali faoliyatlar ichida muhim faoliyat turi hisoblanadi. Oʻquvchilarda musiqqa mazmuniga tushunib yetish va shunga mos ravishda oʻz harakatlarini boshqara olish mahoratini shakllantiribgina qolmay, turli xalqlar, turli millatlar musiqalarini bir-biridan farqlay olish musiqqa ritmini, tezligini, dinamikasini va xarakterini bilishga oʻrgatadi.



Musiqa bilan raqs harakatlari

Ayniqsa harakatlar jarayonida ular musiqaning ichki tuzilishini ham o‘rganadi.



Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini ilmiy asosda tashkil etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish ta’lim samaradorligini oshirishning bosh omilidir. Tadqiqot va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, musiqa darslari faqatgina nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘quvchilarning ma’naviy-estetik dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Maqola davomida ilgari surilgan fikrlardan quyidagi yakuniy xulosalarga kelish mumkin:

1. Texnologik yondashuv: Zamonaviy kompyuter texnologiyalari, multimedia vositalari va video darsliklardan foydalanish musiqa darslarining jozibadorligini oshiradi va o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini faollashtiradi. Bu o‘z navbatida, “buyurtma — vosita — uslub — yondashuv” tizimining uzviyligini ta’minlaydi.

2. Ma’naviy meros va Maqom: Prezidentimiz qarorlarida ta’kidlanganidek, milliy maqom san’atini ta’lim jarayoniga chuqur singdirish yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash va yuksak badiiy tafakkurni kamol toptirishning asosiy vositasidir.

3. Pedagogik mahorat: Musiqa o‘qituvchisi nafaqat metodist, balki mohir ijrochi ham bo‘lishi shart. O‘qituvchining jonli ijrosi va darsdagi ko‘rgazmalilik tamoyili o‘quvchilar uchun eng kuchli motivatsiya manbai bo‘lib xizmat qiladi.

4. Barkamol avlod tarbiyasi: Musiqa san’atining ruhiy ta’sir kuchi orqali o‘quvchilarning emotsional intellektini rivojlantirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash davlat ta’lim standartlarining pirovard maqsadidir.

Demak, musiqa darslarini tashkil etishda tizimlilik, ilmiylik va zamonaviylik tamoyillariga tayanish — jamiyatimiz uchun har tomonlama yetuk va ma’naviy barkamol shaxslarni yetkazib berishning mustahkam poydevori bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. –T.: “Sharq” matbaa nashriyoti. 1999-yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risidagi qarori. 2018-yil, 14-avgust.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5848-sonli Farmoni. 08.10.2019-y.
4. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va tarixi. – Toshkent: Fan, 1993.
5. Ishmuxamedov R. Innovatsion texnologiyalar asosida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – Toshkent: TDPU, 2005.
6. Ibragimov O. Farg‘ona-Toshkent maqomlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2006.
7. Karimova D.A. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008.
8. Farberman V.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2010.
9. Ibragimov O., Sadirov I. Musiqa: 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017.
10. Ibragimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Shaffof, 2023.
11. Abilov M. Cholg‘u ijrochiligi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2023.
12. Abilov M., Raimjonov S. Musiqa o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2024.